

**“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ tomonidan 2025-yil yakuni bo‘yicha korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan
UMUMIY HISOBOT**

I. “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda - Aksiyadorlik jamiyati)ning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi ijrosi to‘g‘risida.

Aksiyadorlik jamiyatning 2025-yil 17 yanvardagi 6-sonli buyrug‘i bilan “Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amalga oshiriladigan yillik chora-tadbirlar Dasturi” tasdiqlangan.

Dasturda 14 ta maqsad va vazifalar hamda bu maqsadlarni amalga oshirishda 55 ta mexanizm belgilab olingan.

Yil davomida belgilangan maqsad va vazifalar doirasida 4 mexanizm bajarilmagan bo‘lib dastur 93 % ga bajarilgan.

Ushbu dasturga muvofiq;

- fevral oylida Aksiyadorlik jamiyatining barcha boshqarma va bo‘linmalarning faoliyatini tartibga soluvchi me‘yoriy hujjatlari korrupsiyaga qarshi auditdan o‘tkazildi.

- aksiyadorlik jamiyati muhiti (Kontekst), manfaatdor tomonlarning talablari, xavflar va imkoniyatlar tahlili o‘tkazildi.

- Manfaatdor tomonlarning aksiyadorlik jamiyati korrupsiyaga qarshi menejment tizimiga (KQKMT) ta’sirini aniqlandi. Manfaatdor tomonlarning talablari, xavflar va imkoniyatlar belgilandi.

- Yanvar-fevral oylarida jamiyat funksiyalari doirasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash amalga oshirildi.

- 3973/4015 nafar xodimlardan manfaatlar to‘qnashuvi mavjud/mavjud emasligi to‘g‘risida yillik deklaratsiya arizalar olindi. Yil davomida

- Aloqa kanallariga kelib tushgan murojaatlar tegishlilik doirasida o‘rganildi va xizmat tekshiruvlar o‘tkazildi. Korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risida xabarlar kelib tushmadi.

- Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo‘limi tomonidan har oyning 5 sanasiga qadar bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risida ma’lumotlar joylashtirilib kelindi.

- Tarkibiy bo‘linmalarda Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish ishlari amalga oshirildi. Aniqlangan nomuvofiqliklar bartaraf etildi.

- Nazorati belgilangan yo‘nalishlar monitoring va nazorat tadbirlari o‘tkazildi.

- yil davomida xodimlar korrupsiyaga qarshi ichki me‘yoriy hujjatlar bilan tanishtirildi hamda ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish bo‘yicha davra suhbatlari va targ‘ibot tadbirlari o‘tkazildi.

- “E-Anticor.uz” elektron platformasining 5 ta yo‘nalish va 29 ta indikatori talablari va topshiriqlari bajarildi.

- ISO 37001:2016 xalqaro standarti bo'yicha Korrupsiyaga qarshi menejment tizimini ichki va tashqi auditdan muvafaqqiyatli o'tkazildi.

- "9-dekabr – Butun jahon Korrupsiyaga qarshi kurashish kuni" doirasida Respublikada belgilangan "Aksilkorrupsiya oyligi"da bir qator tadbirlar, televidiniya va radio chiqishlar amalga oshirildi.

- Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qilingan ishlar rasmiy veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritildi.

Dasturda belgilangan:

1. Tanlov asosida ishga qabul qilish va onlayn kuzatishni joriy qilish hamda videomateriallarni saqlash.

2. Markaziy laboratoriya, Geoburxizmat uchastkasida monitoring va nazorat tadbirlarini o'tkazish.

3. Samarqand markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasida monitoring va nazorat tadbirlarini o'tkazish.

4. Analitik laboratoriya majmuasi, markaziy geologiya geofizika ekspeditsiyasida monitoring va nazorat tadbirlarini o'tkazish mexanizmlari amalga oshirilmadi.

II. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan ichki me'yoriy hujjatlar, ularni yangi qabul qilingan normalarga muvofiqligi hamda ular bilan xodimlarning tanishtirish holati.

Aksiyadorlik jamiyatida "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati (Kuzatuv kengashining 2023-yil 25-maydagi 6-son Bayonnomasi), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatining manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom (2025-yil 17-yanvar kunidagi 6-son buyruq 1-ilovasi), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatining manfaatlar to'qnashuvini boshqarish Siyosati (Kuzatuv kengashining 2023-yil 4-avgustdagi 01-2023-son majlis qaroriga 2-ilova), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyati aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti (2025-yil 17-yanvar kunidagi 6-son buyruq 2-ilovasi), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyati xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitishni tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnoma (2025-yil 17-yanvar kunidagi 6-son buyruq 3-ilovasi), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatida kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma (2025-yil 17-yanvar kunidagi 6-son buyruq 4-ilovasi), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma (2025-yil 17-yanvar kunidagi 6-son buyruq 5-ilovasi), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti (2025-yil 17-yanvar kunidagi 6-son buyruq 6-ilovasi), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom (2025-yil 17-yanvar kunidagi 6-son buyruq 7-ilovasi), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyati xodimlarining korrupsiyaviy hatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari

o'tkazish bo'yicha Reglamenti (2025-yil 17-yanvar kunidagi 6-son buyruq 8-ilovasi), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyati faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti (2025-yil 17-yanvar kunidagi 6-son buyruq 9-ilovasi), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatida shartnomalarni kelishish, imzolash va ijro etish Siyosati (2025-yil 17-yanvar kunidagi 6-son buyruq 10-ilovasi), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatida davlat xaridlari ustidan nazoratni tashkil etish bo'yicha uslubiy qo'llanma (2025-yil 17-yanvar kunidagi 6-son buyruq 11-ilovasi), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatida sovg'alar berish va olish, vakillik xarajatlarini amalga oshirish bo'yicha Siyosati (2022-yil 31-avgust kunidagi 102-son buyruq 4-ilovasi), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatida homiylik va beg'araz yordam ko'rsatish to'g'risidagi Nizomi (Yagona aksiyadorning 2023-yil 5-iyuldagi 94/09-30-qr-son qarori), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi (2023-yil 29-mart kunidagi 49-son buyruq), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatining qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish Siyosati (Kuzatuv kengashining 2023-yil 4-avgustdagi 01-2023-son majlis qaroriga 3-ilova), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatining Xaridlar faoliyati to'g'risidagi Nizom (2024-yil 20-mart kunidagi 29-son buyruq), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatining Axloq Kodeksi (Kuzatuv kengashining 2023-yil-4 avgustdagi 01-2023-son majlis qaroriga 1-ilova)lari ishlab chiqilib tasdiqlandi.

Aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 24-noyabrdagi 121-sonli buyrug'i bilan "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom", "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatining "sovg'alar berish va olish, biznes-tadbirlarni tashkil etish va ishtirok etish, vakillik xarajatlarini amalga oshirish bo'yicha Siyosati" va "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyati Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmatining Komplayens Siyosati" tasdiqlandi. Ushbu ichki normativ-huquqiy hujjatlar Aksiyadorlik jamiyati hamda uning 8 ta hududiy tarkibiy bo'linmalar kesimida tatbiq etiladi.

Aksiyadorlik jamiyatida "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki me'yoriy hujjatlari o'quv seminar va davra suhbatlari orqali takroriy xodimlarga mazmun mohiyati tushuntirish orqali yetkazilmoqda va 836 nafar ishga qabul qilingan xodimlarning bilim ko'nikmalari oshirildi.

III. Korrupsion xavf-xatarlar xaritasi tuzilganligi va unda "yuqori" darajadagi xavflarni bartaraf etish bo'yicha sora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilganligi va uni natijadorligi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Davlat boshqaruv sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-240-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2024-yil 20-fevraldagi 04-07/1139-sonli topshiriq xatiga muvofiq "O'zbek geologiya

qidiruv” AJning Korrupsion xavf-xatarlar xaritasi 2025-yil 2-may sanasida tasdiqlandi. Unga ko‘ra Jamiyatning baholangan 15 ta funksiyasidan 2 tasi “Yuqori”, 6 tasi “O‘rta” va 7 tasi “Past” darajani tashkil etdi. Ushbu baholash natijalaridan kelib chiqqan holda 8 ta banddan iborat korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlandi.

Korrupsion xavf-xatarlar xaritasi, dasturi va xavf-xatarlar yuqori lavozimlar doirasida 24 nafar xavf-xatari “yuqori” va “o‘rta” bo‘lgan lavozimda faoliyat olib borayotgan xodimlar Virtual akademiya platformasida maxsus o‘quv kurslarida o‘qitildi.

Unga ko‘ra Jamiyatning baholangan 15 ta funksiyasidan 2 ta “Yuqori”, 6 ta “O‘rta” darajadagi funksiyalarni past daraja tushirish bo‘yicha dasturda belgilangan monitoring tadbirlari, mavjud tartiblarning to‘liq ishlashi bo‘yicha nazoratlar o‘tkazildi.

IV. Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma’lumot.

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida jami 4015 nafar mehnat faoliyatini olib borayotgan xodimlar 3973 nafar xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi mavjud/mavjud emasligi to‘g‘risidagi yillik deklaratsiya arizalar to‘ldirildi. To‘ldirilgan deklaratsiyalar tahliliga ko‘ra Axloq komissiyasi tomonidan 361 ta potensial (ehtimoliy) manfaatlar to‘qnashuvi, 1 ta haqiqiy manfaatlar to‘qnashuvi aniqlandi.

1 ta haqiqiy manfaatlar to‘qnashuvi bartaraf etilib ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatlari bo‘yicha nazorat o‘rnatildi.

Manfaatlar to‘qnashuvi doirasida tarkibiy bo‘linmalar mas’ullari ishtirokida o‘quv seminari tashkil etilib, ularga 361 ta ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatlari bo‘yicha monitoring tadbirlarini o‘tkazish tartibi va amaliyotdagi o‘rganilib tarkibiy bo‘linmalarda amalga oshirilgan monitoring tadbirlarida ushbu lavozim va vazifalarda ishlovchilar bilan ularning oylik maoshlari, qo‘shimcha kelishuvlar miqdorlari hamda so‘rovnomalar o‘tkazildi va ularda ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatlari haqiqiy manfaatlar to‘qnashuviga aylanmagan.

2025-yil davomida 836 nafar xodim ishga qabul qilinib ularning barchasi manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiya arizalari topshirdi. Natijada 2 ta ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holati aniqlandi hamda nazoratga olindi. Shuningdek ishga qabul qilishda nomzodlarni o‘rganishda 1 ta haqiqiy manfaatlar to‘qnashuvi oldi olindi.

V. Barcha tuzilgan shartnomalar, shu jumladan mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi bandlari qo‘shilganligi to‘g‘risida.

Aksiyadorlik jamiyati tomonidan 2025-yil davomida xaridlar sohasida jami 2042 ta shartnomalar rasmiylashtirilgan. Shulardan:

- elektron do‘kon – **773** ta;
- korporatsion birja – **867** ta;
- auksion – **306** ta;
- spot – **3** ta;
- ECO platforma (Milliy ishlab chiqarish) – **25** ta;
- tanlov – **56** ta;

- to'g'ridan-to'g'ri – 12 ta;

- tender-1.

Hisobot davrida 819 ta xodim ishga qabul qilinib ularning mehnat shartnomalari korrupsiyaga qarshi kurashish bandari bilan to'ldirilib tanishtirildi.

Shu davrda aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy bo'linmalariga jami 80 ta ish o'rinlariga tanlov o'tkazildi, tanlovga jami 243 nafar nomzod ishtirok etib, ishga qabul qilinadigan nomzodlar kompleks tekshiruvdan o'tkazildi. 28 ta tanlov talab qilinadigan ish o'rinlariga tanlovsiz xodim qabul qilingan. 21 tanlov talab qiladigan ish o'rinlariga oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari va Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi kvotalari asosida xodimlar ishga qabul qilingan. Ishga qabul qilinganlarning 690 tasi ishchi kasblarga qabul qilingan. Ishga qabul qilinadigan nomzodlar kompleks tekshiruvdan o'tkazildi.

VI. Xaridlar jarayoni, ularni amaldagi qonunchilikka muvofiqligi, o'rganilgan kontragentlar soni, mazkur yo'nalishda aniqlangan holatlar.

Barcha tuzilgan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi bandlar kiritilgan. Korrupsiyaga qarshi bandlarni kiritishni rad etish holatlari mavjud emas.

Aksiyadorlik jamiyati tomonidan 2025-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi PQ-3953-sonli qarori talablari asosida shartnoma imzolangan 12 ta tog'ridan-to'g'ri 79 400 089 006,9 so'mlik, 56 ta eng yaxshi tanlov orqali 140 469 332 263,07 so'mlik tuzilgan shartnoma yuzasidan 2025-yil 17-yanvar kunidagi 6-son buyruq 4-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatida kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma talablari doirasida 36 ta kontragentlar tekshirishdan o'tkazilib, ularda korrupsiyaviy holatlar (manfaatlar to'qnashuvi) aniqlanmadi. To'g'ridan to'g'ri yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarga hamda eng yaxshi tanlov bo'yicha shartnomalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qo'shimcha bandlari kiritilishi yo'lga qo'yilgan.

VII. O'tkazilgan monitoring natijasida aniqlangan kamchiliklar va ko'rilgan choralar to'g'risida.

Aksiyadorlik jamiyatning 2025-yil 17-yanvardagi 6-sonli buyrug'i bilan "Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amalga oshiriladigan chora-tadbirlar Dasturi"ga muvofiq fevral oyida Aksiyadorlik jamiyatining boshqarma va bo'limlarini ichki me'yoriy hujjatlari korrupsiyaga qarshi auditdan o'tkazilib, ayrim bo'lim nizomlari, lavozim yo'riqnomalarida nomuvofiqliklar va 10 ta bo'limlarning yillik ish rejasi ishlab chiqilmaganligi aniqlandi. Holatlar bartaraf etish bo'yicha topshiriq va muddatlar belgilanib bartaraf etildi.

Toshkent, Qizilqum, Hisor MGQE va Regional MGTEda o'tkazilgan monitoring natijasida.

Qizilqum MGQEda:

1. Ishga qabul qilingan nomzodlar kompleks tekshiruvdan o'tkazilmagan;

2. Bo‘lim, sex, uchastkalarining faoliyatini tartibga soluvchi me‘yoriy hujjatlarini korrupsiyaga qarshi auditdan o‘tkazilmagan;

3. xodimlarining 2025-yil yanvar, fevral, mart, aprel oylarida xodimlarning qo‘shimcha kelishuv to‘lovlari kamaytirilganlari buyruq bilan kamaytirilgan, qo‘shib berilishi va yangidan berilishi bo‘yicha asoslar mavjud emas;

4. Xodimlarning qo‘shimcha kelishuvlar bo‘yicha tasdiqlash va kelishish muddatlari qo‘yilmagan;

5. Xodimlarning qo‘shimcha kelishuv ustamalarini ko‘rib chiqish komissiyasining yig‘ilish isbotini tasdiqlovchi hujjati mavjud emas;

- Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlari sinoviga ko‘ra:
- Korrupsiyaga qarshi qonunlarni bilish darajasi – 66 %;
- Korrupsiya tushunchasini bilish darajasi – 79 %;
- Korrupsiyaviy huquqbuzarlikni ajrata olish darajasi – 66 %;
- Manfaatlar to‘qnashuvlarining turlarini bilish – 37 %;
- Kronizm yangi atamasi va uning ma’nosidan xabardorlik – 30 %;
- Ichki aloqa kanallarining bilish darajasi – 15 %;
- Javobgarliklarning bilish darajasi – 70 %;
- Pora tushunchasini bilish darajasi – 80 %;
- Xabar berganlik uchun rag‘batlantirish haqida xabardorlik – 65 % ni tashkil etdi.

Hisor MGQEda:

- Xodimlar bilan tuziladigan mehnat shartnomasiga korrupsiyaga qarshi kurashish talablari va shartlari asosida qo‘shimcha kelishuvlar kiritilgan, ishga yangi qabul qilingan xodimlar mehnat shartnomalarida ushbu bandlar talab darajasida kiritilmagan;

- Ishga qabul qilingan nomzodlar kompleks tekshiruvdan o‘tkazish uchun mas’ulga yuborilmagan natijada kompleks tekshiruv o‘tkazilmagan;

- Me‘yoriy hujjatlar va ularning mazmun-mohiyatini tushuntirish bo‘yicha targ‘ibot tadbirlari va o‘quv seminarlari tashkil etilmagan;

- Bo‘lim, sex, uchastkalarining faoliyatini tartibga soluvchi me‘yoriy hujjatlarini korrupsiyaga qarshi auditdan o‘tkazilmagan;

- Xodimlarning qo‘shimcha kelishuvlar bo‘yicha ro‘yxatlarni tasdiqlash va kelishish muddatlari qo‘yilmagan;

- Shaxsiy tarkibga oid buyruqlarda bir qancha nomuvofiqliklarga yo‘l qo‘yilgan;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlari sinoviga ko‘ra:
- Korrupsiyaga qarshi qonunlarni bilish darajasi – 80 %;
- Korrupsiya tushunchasini bilish darajasi – 95 %;
- Korrupsiyaviy huquqbuzarlikni ajrata olish darajasi – 85 %;
- Manfaatlar to‘qnashuvlarining turlarini bilish – 15 %;
- Kronizm yangi atamasi va uning ma’nosidan xabardorlik – 54 %;
- Ichki aloqa kanallarining bilish darajasi – 54 %;
- Javobgarliklarning bilish darajasi – 85 %;

- Pora tushunchasini bilish darajasi – 95 %;
- Xabar berganlik uchun rag‘batlantirish haqida xabardorlik – 32 % ni tashkil etdi.

Boshqaruv apparati Moliyaviy-iqtisodiy hisobotlar boshqarmasi va Korporativ aloqalarni rivojlantirish bo‘limi xodimlarining Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlari sinoviga ko‘ra:

- Korrupsiyaga qarshi qonunlarni bilish darajasi – 92 %;
- Korrupsiya tushunchasini bilish darajasi – 100 %;
- Korrupsiyaviy huquqbuzarlikni ajrata olish darajasi – 100 %;
- Manfaatlar to‘qnashuvlarining turlarini bilish – 77 %;
- Kronizm yangi atamasi va uning ma’nosidan xabardorlik – 54 %;
- Ichki aloqa kanallarining bilish darajasi – 92 %;
- Javobgarliklarning bilish darajasi – 100 %;
- Pora tushunchasini bilish darajasi – 100 %;
- Xabar berganlik uchun rag‘batlantirish haqida xabardorlik – 100 % ni tashkil etdi.

Regional MGTEda:

Ishga qabul qilishda tanlov tartibiga to‘la rioya etilmagan hamda hujjatlashtirish yetarli darajada olib borilmagan;

- Ishga qabul qilingan 23 ta xodimdan 5 tasi kompleks tekshiruv o‘tkazilmagan;
- Tuzilgan mehnat shartnomalarining xodim majburiyatlarida korrupsiyaga qarshi bandlar bilan to‘ldirilgan lekin tanishtirilishi talab darajasida emas;
- Xodimlarning ongida korrupsiyaga qarshi murossasizlikni shakllantirish bo‘yicha o‘qitish, targ‘ibot va profilaktika tadbirlari kam o‘tkazilib kam xodim qamrab olingan;
- 32 ta yaqin qarindoshlarning ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi doirasida ularning oylik maoshlari, ustamalar va mukofotlari o‘rganildi. Ekspeditsiyada faoliyat olib borayotgan yaqin qarindoshlarning oylik maoshlari va ustamalarida shu lavozimga teng lavozimdagi xodimlar bilan solishtirganda sezilarli tafovut mavjud emas. Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatlari haqiqiy manfaatlar to‘qnashuviga aylanmagan;
- Bo‘lim, sex, uchastkalarining faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlarini korrupsiyaga qarshi auditdan o‘tkazilmagan;
- xodimlarining qo‘shimcha kelishuv to‘lovlarini amalga oshirishlarda qo‘shimcha kelishuv miqdorini kamaytirishga asos va buyruqlari mavjud emas;
- xodimlarining qo‘shimcha kelishuv to‘lovlarini amalga oshirishlarni rasmiylashtirish miqdorini belgilashda noaniqliklar mavjud;
- Korrupsiyaga qarshi yillik dasturi ishlab chiqilmagan;
- “O‘zbek geologiya qidiruv” AJning Korrupsiyaga qarshi xatta-harakatlar to‘g‘risida xabar berish imkonini beruvchi ishonch telefon, telegram botlar kirish joylariga qo‘yilmagan;

Regional markaziy geologiya tasvirlash ekspeditsiya xodimlari ishtirokida 1 ta o‘qitish tadbirlari o‘tkazilib xodimlarning korrupsiyaga qarshi huquqiy ongi oshirilib, tarqatma materiallar tarqatildi.

25 nafar xodimlarning Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlari sinovdan o'tkazildi.

Aniqlangan kamchiliklar bartaraf etish yo'l xaritalari tuzilib nomuvofiqliklar bartaraf etildi.

Yil davomida aksiyadorlik jamiyati va uning hududiy tarkibiy bo'linmalarida omborxonalar monitoringlari, ish haqi, rag'batlantirish, mukofotlashlar monitoringi, yoqilg'i moylash maxsulotlari sarfi monitoringlari o'tkazildi.

VIII. Aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari, aksiyadorlik jamiyatida o'tkazilgan nazorat tadbirlari va tartib-taomillarning bajarilish holati.

Hisobot davrida, xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog'liq murojaat va xabarlarni qabul qilishga mo'ljallangan aloqa kanallariga tarkibiy bo'linmalar kesimida

4 ta murojaat kelib tushgan bo'lib 1 tasi ishga kirish tanloviga hujjat topshirgan lekin fuqaro chaqirilmaganligi, 1 tasi burg'ilash ustasi bilan mehnat shartnomasi noto'g'ri bekor qilindi vaji bo'yicha, 1 tasi oylik ish haqi to'lanishi bo'yicha, 1 tasi o'tkazilgan xizmat tekshiruvi natijadan norozilik bo'yicha bo'lgan, 2 ta murojaat bo'yicha xizmat tekshiruvi tayinlangan.

IX. Aniqlangan qoidabuzarliklar va xodimlarga qo'llanilgan ta'sir choralari.

"O'zbek geologiya qidiruv" AJ markaziy omborxonasidan №0100-000206-sonli yuk xati asosida 16.05.2025 yilda kelgan tovar moddiy boyliklari va ularning ro'yxatidagi tafovutni aniqlash bo'yicha Hisor MGQE rahbarining 27.05.2025 yildagi 112-sonli xizmat tekshiruvi o'tkazilgan. O'tkazilgan xizmat tekshiruvi natijalariga ko'ra 459 821 so'mlik kamomad aniqlangan. kamchilik mas'ul xodimlar tomonidan bartaraf etilgan va ularga nisbatan Axloq komissiyasi qaroriga ko'ra hayfsan va ta'sir choralari qo'llanilgan.

Omborxonalarni inventarizatsiyadan o'tkazish jarayonlarida:

Aksiyadorlik jamiyati Markaziy omborxonasida 377329,16 so'mlik Regional markazig geologiya tasvirlash ekspeditsiyasida 423 340,45 so'm kamomad aniqlangan.

Bu holatlar bo'yicha Jamiyat boshqaruv raisining va tarkibiy bo'linmalar rahbarlarining buyrug'i bilan kamomadlar moddiy javobgar shaxslar oylik maoshidan undirilgan, hamda moddiy javobgar shaxslarga nisbatan intizomiy ja'zo choralari qo'llanilgan.

Aksiyadorlik jamiyatining Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat ishonch telefoni orqali fuqaro B. Karayevadan 2 ta murojaat kelib tushgan. Birinchi murojaatida turmush o'rtog'i O. Ziyayevning 2024-yil 4 oy davomida ishlagan ish haqi to'lab berilmaganligi ma'lum qilgan ushbu murojaat yuzasidan xizmat tekshiruvi tayinlanib murojaatda ko'rsatilgan holatlar qisman o'z tasdig'ini topgan, to'lanmagan 25 212 988 so'mlik ish haqi to'lab berilishi ta'minlandi.

X. Xodimlarni huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish hamda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar.

Aksiyadorlik jamiyatning 2025-yil 17-yanvardagi 6-sonli buyrug'i, "Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amalga oshiriladigan chora-tadbirlar Dasturi" ining

14.1-bandiga hamda Aksiyadorlik jamiyatining boshqarma, bo'lim hamda tarkibiy bo'linmalarda o'qitish rejasiga muvofiq ishlar amalga oshirildi.

Joriy yil davomida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi xodimlari va joylardagi mas'ullar tomonidan:

11 ta maxsus o'qitishda 130 ta xodim o'qitildi;

65 ta targ'ibot tadbiri va davra suhbatlari o'tkazilib (1653);

25 ta boshqaruv raisining murojaatnomasi bo'yicha yig'ilish o'tkazildi (953);

8 ta profilaktik tadbir tashkil etildi (253);

90 ta o'qitishlar tashkil etilidi (1640);

819 ta (188 ta o'quv seminar) yangidan ishga qabul qilingan xodimlar bilim ko'nikmalari oshirildi.

O'quv seminarlari, targ'ibot tadbirlari hamda davra suhbatlarida jami

5448 nafar rahbar va ishchi-xodimlar qamrab olindi.

“9 dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag'ishlangan aksilkorrupsiya oyligi doirasida Boshqaruv apparati va tarkibiy bo'linmalarda 20 dan ortiq o'quv seminar, targ'ibot tadbirlar, profilaktika tadbirlar, radio va televidiniyada chiqishlar amalga oshirildi. Shuningdek “Korrupsiyasiz jamiyatni birga quramiz” mavzusida “Ochiq eshiklar kuni” o'tkazildi.

XI. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash, ularning oldini olish va chek qo'yish, oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha takliflar.

Xodimlarning korrupsiyaga nisbatan huquqiy ongi va madaniyatini oshirish choralarini kuchaytirish, targ'ibot materiallarini yetib borishini ta'minlash.

Monitoring va hisobdorlikni barcha boshqarma, bo'lim va tarkibiy bo'linmalar uchun majburiy etib belgilash.

Aksiyadorlik kesimida sodir etilishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy holatlar reestirini yaratish va bularga tizimli qarshi kurashish mexanizmlarini joriy qilish hamda nazoratni yo'lga qo'yish.

**Korrupsiyaga qarshi ichki
nazorat xizmati boshlig'i**



D. Saidaxborov